TOSHKENT VILOYATI QIBRAY TUMAN HOKIMI
Q A R O R I

2022 - yil 5 - fevral 49-10-139-Q/22 Qibray tuman hokimligi

Toshkent viloyati hokimining 2022 yil 31- yanvardagi 28-10-0-Q/22-son qarori ijrosini ta’minlash tog’risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 30-dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim farmonlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish, shuningdek, ba’zilarini o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblash to‘g‘risida”gi PF–45-son Farmoniga hamda Toshkent viloyati hokimining 2022 yil 31-yanvardagi 28-10-0-Q/22-son qaroriga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-, 25-moddalariga asosan;

QAROR QILAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 30-dekabrdagi PF–45-son Farmoni hamda Toshkent viloyati hokimining 2022 yil 31-yanvardagi 28-10-0-Q/22-son qaroriga ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim farmonlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilganligi hamda o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblanganligi inobatga olinsin.

3. Tuman hokimligi tizimidagi tegishli idora va tashkilotlar o‘zlari qabul qilgan huquqiy hujjatlarni ushbu qarorga muvofiqlashtirsinlar.

4. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining sanoatni rivojlantirish, moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari X.Bekmurodov zimmasiga yuklatilsin.

Туман ҳокими **М. Миркасимов**